

## HIKOYADA INSON RUHIYATI VA RAMZIYLIK TALQINI

*BuxDU Filologiya fakulteti talabasi  
Hakimova Shahnoza Yusuf qizi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek hikoyachiligiga o'zining hissasini qo'shishga intilayotgan yosh va umidli ijodkor Bibi Robiya Saidovanning hikoyalaridagi ramziylik haqida so'z boradi. Uning qahramonlari ruhiyatidagi mahzunlik tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar.** Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi, ramziy-falsafiy tahlil, mahzun ruhiyat.

**Kirish.** Milliy adabiyotimiz bo'stonida gul ko'p, chechak ko'p. Zamonaviy nasrimiz ham shu bo'stonning bir xushbo'y chechagidir. Ijod ahli vakillari esa shu chechaklarni o'zlarining qalam kuchlari bilan sug'orishlari o'zbek adabiyoti rivoji uchun qo'shilgan beqiyos hissadir. Ana shunday ijod bog'bonligiga da'vo qiluvchi qalamkashlarimiz qatorida Bibi Robiya Saidovani ham ko'rishimiz mumkin. Istiqlolning hur farzandlari qatorida ijod qilib kelayotgan Bibi Robiya Saidova bugungi kunda milliy nasrimizda o'z ovozi va uslubiga ega ekanligini isbotlab kelayotgan yosh, umidli ijodkorlarimizdan biridir.

Bibi Robiya Saidovanning bugungi kunda chop etilgan "Kakku ovozi", "Parvoz" to'plamlaridan joy olgan bir qancha hikoyalari o'z o'quvchilari qo'liga yetib borib, ularning dil torlarni chertishga ulgurdi. Ayniqsa, uning "Kuzgi tufli", "Xizr tashlagan qanot", "Kakku ovozi", "Marv tuti" hikoyalarida yosh ijodkor tomonidan qalamga olingan turfa taqdirlar, yaxshi-yu yomon insonlar va ularning fe'llaridagi yutuq-u kamchiliklar kitobxonni beixtiyor o'ylashga chorlaydi. Darhaqiqat, inson xarakteri murakkab. Ijodkor insonning ana shu murakkab xarakterini hikoyalarida o'z qarashlari orqali bayon etib, o'quvchi hukmiga havola etadi.

**Tahlil.** Bibi Robiya o'z hikoyalarida tasvir etayotgan voqea-hodidasi uchun bolalar obrazidan unumli foydalanadi. U bolaning ichki kechinmalarini ko'z qarashlari, tabassumi yoki birgina ko'z yoshi tasviri orqali ifodalab bera oladi. Tahlil uchun "Kuzgi tufli" hikoyasini oladigan bo'lsak, ushbu kichkina hikoya orqali yozuvchi hayotning beshavqatligi, uning past-balandligi oldida bola ko'nglining naqadar ojiz ekanligini bir necha misollar orqali ko'rsatib beradi. Ushbu satrlarga diqqat qilaylik: "...Onasi ko'zini yerdan uzmagani ko'yi tuflining narxini yana so'radi. Bola sotuvchi og'zidan yana o'sha narx yangragunga qadar bo'lgan muddatda onasining yurak tovushini eshitdi. Sotuvchi aybdorona ohangda o'sha raqamlarni qaytararkan, nima uchundir xijolat tortdi. Shunda farzand nigohlarini onasining oyoqlariga qadadi. Bola onasining shuncha yillardan beri kiyilaverib orqasi ezilib

ketgan, old va yonlaridagi ba'zi joylarining choklari so'kilgan poyabzalini ko'rib, goh volidasi yuziga, goh yerga tikilardi, tikilgan sayin ko'zlaridagi mung quyuqlashardi. Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi...". Bu tasvir orqali ko'rinib turganidek, Bibi Robiya ayolning qiynalib qolgani, uning boshiga qandaydir musibat tushganini nafaqat, poyabzal tasviri balki, bolaning mo'ltillab turgan munchoq ko'z qarashlari bilan quyuq bo'yoqlarda ifodalab beradi. Ola ruhiyatidagi bu mahzunlik hikoya davomida sotuvchiga, unda keyin esa kitobxonga yuqadi.

Umuman olganda, ijodkor qalamga olgan har bir bola tabiatida mahzunlik bor. Bu mahzunlik hikoyalarning bus-butun ko'rinishida ham sezilib turadi. Qiziqarli joyi shundaki, ijodkor bu hikoyada bolani bosh qahramon sifatida olmagan. Bosh qahramon - bu sotuvchi ayol. Uning ham o'z oilasi, tashvishlari, qiyinchiliklari bor. Biroq hikoya davomida u ham kitobxon singari bir tomoshabin bo'lib voqealar rivojini kuzatadi. Poyabzal do'koni bu hikoyada ramziylik yukini o'zida tashigan, nazarimda. Do'kon bu biz yashab turgan kurrai zamin. Undagi xaridorlar bu jamiyat, sotuvchi esa ayni paytda yozuvchining o'zidir. Ijodkor sotuvchi ayol orqali hayotni, insonlar hayotini tahlil etadi. Do'konga kirib kelgan har bir xaridor har doim ham kerakli narsasini topa olmaydi, yoki uni sotib olishga qurbi yetmaydi, yoki qurbi yeta turib qing'ir yo'llar orqali o'ziga kerakli buyumni undirmoqchi bo'ladi. Hikoyada nomlari keltirilgan boy ota va uning erkatoiy arzanda qizi, lo'li ayol, sotuvchining makkor tog'asi, kaltafahm bir kimsa, shuningdek bechora ona va uning ko'zlari javdirab turadigan o'g'li obrazlari dunyoning naqadar past-balandliklardan, bechora-yu takabburlardan, yaxshi-yu yomonlardan tarkib topganini ochib bergan.

**Muhokama.** Ramziy – falsafiy tasvir uslubi bugungi hikoyalarning o'ziga xos yutug'i sifatida ko'zga tashlanadi. Chunki ularda yozuvchining teran falsafiy qarashlari, badiiy ijod qobiliyati bilan bir qatorda ilmiy bilim va tafakkuri namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. [1.106]. Bibi Robiya Saidova ham yuqorida aytib o'tilganidek, ana shu ramziylik va falsafiylikdan unumli foydalanib, nasriy asarlarida o'z mahoratini ko'rsata olgan ijodkorlardandir desak, mubolag'a bo'lmas. Yozuvchining boshqalardan ajralib turadigan yana bir jihati shundaki, uning qahramonlari tabiatida mahzunlik ustuvor. Ko'pchilik hikoyalarida ana shu mahzun ruhiyat o'z aksini topgan. Balki bu adibaning hayotga mahzunlik pardasi orqali go'zallikni ko'ra olish qobiliyatidandir. E'tirof etish kerakki, ijodkor o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan maqsadini ana shu mahzun parda orqali yetkaza olgan. Hikoyalarni o'qish davomida bunga ko'p bora amin bo'lamiz.

<sup>1</sup> Ahmedova Sh., „Hozirgi adabiy jarayonni o'qitish texnologiyalari“. Darslik. 2022.106-b

**Xulosa.** Mustaqillik davrida yaratilgan hikoyalarni kuzatar ekanmiz, o'zbek hikoyanavisligi inson olamini, uning o'ziga xos xarakter-xususiyati-yu tuygularini va o'sha tuygularga mos hatti-harakatlarini aks ettirish borasida qator yutuqlarni qo'lga kiritganligining guvohi bo'lamiz.

**ADABIYOTLAR:**

1. Ahmedova Sh., „Hozirgi adabiy jarayonni o'qitish texnologiyalari”. Toshkent., „Fan ziyosi”. Darslik. 2022.
2. Saidova B., „Parvoz”. Toshkent., „Adib”. 2014.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi